



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

3(11)

2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№3(11) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom” talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo‘yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

“Pedagogical akmeology” international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the “Regulation on the Higher Attestation Commission” Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: “Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ “Durdona” nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas‘ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY‘ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O‘zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O‘zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O‘rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo‘taboyev Muhammadjon To‘ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) , dotsent

Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Rajabov To‘xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

MUNDARIJA

MAXTUMQULI TAVALLUDINING 300 YILLIGIGA 7

Бахтиёр Назаров, Ғайрат Муродов. Махтумқули ижоди – ибрат ва хайрат манбаси 7

07.00.00 – TARIX..... 14

Haitov Jahongir Shodmonovich, Aslonov Axmadjon Gani o‘g‘li. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mdh davlatlari bilan hamkorlik aloqalari tarixidan 14

Shodiyeva Shahlo Soliyevna, Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o‘g‘li. Buxoro amirligidagi savdo munosabatlari chet el sayyohlari nigohida..... 18

Elova Dilnoza Davlatovna. Turkiston xo‘jaligiga markazdan qochuvchi nasos texnikasining kirib kelishi tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) 23

Зарипов Содик Джураевич. Подготовка кадров для развития народного хозяйства послевоенные годы 27

To‘rayev Anvar Ismoilovich. Buxoro turkmanlarning moddiy madaniyatida taqinchoqlarning o‘rni 31

Erkinova Nilufar Mirshod qizi. Buyuk ipak yo‘lida so‘g‘dliklar faoliyati tarixiga doir masalalar..... 35

Umidjon Baqoyev Shuhrat o‘g‘li. Tarixiy hujjat va manbalarda Ashtarxoniyalar sulolasi va usmoniyalar imperiyasi diplomatik aloqalarining yoritilishi 39

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI..... 46

Muxitdinova Xadicha Sabirovna. Til ta‘limining boshlang‘ich bosqichida to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish..... 46

Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna, Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi. Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatishga innovatsion yondashuv (4-sinfda ot so‘z turkumini o‘rgatish darslari misolida)..... 49

Jumanova Fatima Uralovna. Yangi O‘zbekistonda o‘qituvchi kasbiga oid innovatsion kompetensiyani rivojlantirishning genezisi..... 52

Хазратова Дилшода Азамовна, Кадирова Зулфия Кобуловна. Использование современных химических компьютерных программ при преподавании темы «Структура и изомерия алканов» 56

Ollaberganova Sanobar Xamidovna. Voqelikni aks ettirish mezonlarining o‘zbek xalq ertaklarida ifodalanishi 61

Ruxsora Xalilova Raupovna. Notiqlik ta‘limotida “Individual nutq uslubi” 65

Kinjayeva Gulbahor Sattorqulovna. Raqamli texnologiyalar orqali chet tillarni o‘qitish va o‘rganishning imkoniyatlari 68

Olimov Temir Hasanovich. Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchilarda zamonaviy ta‘lim vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish..... 74

Navbahor Salayeva. Alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari 78

Nurmatova Iroda Toxtasinovna. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va teatr faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari 83

Uzoqov Asliddin Mexriddinovich. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy institutlar faoliyatining ahamiyati 87

Хаджиева Д.А., И.М.Шарибова, Подготовка учащихся начальной школы к грамотности. 92

Джуманиязова Мухайё Хусиновна, Науменко Евгений Александрович. Проектный подход психологических оснований формирования государственного патриотизма молодежи в Узбекистане	98
Raximova Gularo. Shihobiddin Suhravardiyning shogirdlik odobiga doir axloqiy qarashlarining pedagogik asoslari.....	109
Rajabova Lobar Choriyevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ijodkorligida STEAM yondashuvdan foydalanish yo'llari	114
Rasulova Oygul Odil qizi. Genetika fanidan belgilarning mustaqil holda irsiylanishi mavzusiga doir masalalarning yechilishi va tahlili	123
Шарипова Лобар Олимовна. Экологическое воспитание и межкультурная коммуникация: как учитывать экологические традиции и ценности разных народов	129
Yulduz Asadovna Po'lotova. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida axborot-resurslar integratsiyasini ta'minlash–metodik muammo sifatida	132
Xalillayeva Go'zaloy Mo'minjon qizi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv faolliklarini rivojlantirishda mediasavodxonlikni boshqa fanlar bilan integratsiyasi.....	137
Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna. Hikoyada tarixiylik sinkretizmi	141
Shodiyeva Jamila Xolboyevna. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilishda savol va topshiriqlardan foydalanish.....	145
Avliyoqulov Abdug'afur. V-VI sinflarda aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuvlar vositasida o'qitishning nazariy asoslari	150
Dilnoza Mamatova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish borasidagi uslubiy yondashuvlar tahlili.....	155
Xodjayarova Sevara Abdimurat qizi. Bo'lajak pedagoglarning ijodiy sifatlarini rivojlantirishning mazmuni va metodikasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish vositalari	160
Yarashov Mardon Jobir o'g'li. Boshlang'ich ta'limida raqamli texnologiyalar orqali didaktik o'yinlarni qo'llash.....	163
Abdumannatov Abdumajit Matayevich. Alisher navoiy ma'naviy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni	167
Shukurova Nigina Luqmonovna. Muammoli ta'lim texnologiyalari orqali talabalarda pedagogik kompetensiyani rivojlantirish.....	171
Avezov Davronbek Soburovich. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash tizimi	175
Qoraboyev Husniddin Kamolovich. Matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so'rash usullari.....	180
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna. Malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining konseptual asoslari ...	184
Alijon Ruzikulovich Khamroev. Technology for designing students' creative abilities	187
Ahunbabayeva Shahnoza. Tarbiyachilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali faoliyatlar samaradorligini oshirish texnologiyalari.....	192
Tilavova Minavar Durdiyevna. Pedagogik ta'lim jarayonida talabalar kompozitsion-mantiqiy nutqini rivojlantirish metodikasi	196
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Fransuz tilidagi san'atga oid terminlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi tahlili.....	199
Ergasheva Barno Ziyavitdin qizi. Pedagogik kasbi va uning kasbiy kompetensiyalari	204
Qo'ldosheva Nigoraxon Avezmurodovna. Boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida o'quvchilarining muloqot madaniyati ko'nikmasini shakllantirishning dolzarbligi.....	207
Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini ingliz tili bilan integratsiyalab o'rgatishning nazariy asoslari.....	212
Mustafoyev O'tkirjon Rustamovich. Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda sun'iy intellektning o'rni.....	216
Protasov Yorqinjon Yoqubjon o'g'li. Scratch dasturlash muhitida turli shakllarni chizish metodikasi	221

6	Xudoymurodova Dilafuz. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	226
	Qayimov Laziz Mirzo o'g'li. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib va tinglab tushunish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish	229
	Djo'rayeva Dilfuza Nuriddin qizi, Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda mayda motorika ko'nikmalarini shakllantirish orqali tayanch kompetensiyalarining rivojlanishi.....	234
	Одилова Наргиза Акрамовна. Методика развития творческого мышления учащихся начальных классов на естественнонаучной основе	238
	Рахимова Махлиё Акрамовна. Важность развития экологического образования и мышления в сознании молодого поколения	241
	Oybek Ortiqov. Yoshlar tarbiyasi davr talabidir	245
	Исмамов Шухрат Убайдович. Ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш –ижтимоий фаолликни ривожлантирувчи омил сифатида	249
	Nazarov Farhod Allaberdiyevich. O'zbek xalq qo'shiqlarni o'rgatish dolzarb metodik muammo sifatida (Buxoro bolalar folklyori misolida).....	258
	Farmonov O'tkir Alimovich. Oliy ta'lim muassasalarining sport faoliyati basketbol yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining jismoniy rivojlanishi va o'ziga xos imkoniyatlarini nazorat qilish tizimi takomillashtirish.....	262

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI..... 269

	Myxamedova Dilbar Gafurdjanovna, Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi. O'smirlarda depressiyaning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	269
	Kudratov Akmaljon Ibodillayevich. Ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishda motivlar ta'sirini aniqlashning eksperimental tahlili.....	274
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Ibroximov Farruxbek Farhod o'g'li. Talabalarning o'quv faoliyatiga emotsional intellektning ta'siri.....	278
	Kuvandikova Gulnora Gulamovna. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati iste'dodni rivojlantirish omili sifatida	283
	Latipova Umida Yusufboyevna. Talabalar ijodiy faollik motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarning psixologik ahamiyati.....	287
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi. Psixologiyada emotsional kreativlikning nazariy va amaliy o'rganilishi	292
	Husenov Nodir Nuriddinovich. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ulotirish texnikasini o'rgatish metodikasi	297
	Ortiqov Sirojiddin Sa'dullayevich. Huquqiy ong va bilimlar shakllantirishning psixologik xususiyatlari	302
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Mohira Ilg'or qizi Ilxomova. Kichik maktab yoshidagi bolalarda qo'rquvning emotsional xolatlarga ta'siri	307
	Usmanaliyeva Gavhar Akbarali qizi. Bilingvizm va multilingualizm.....	311
	Toshnazarova Uzukoy Azizberdi qizi. Muloqot madaniyatini rivojlantirish psixologik tadqiqot obyekti sifatida	315
	Jurayeva Halima Alisher qizi. Shaxs tashabbuskorligini aniqlash metodlari taxlili	319
	Salomova Guli Shodimurodovna. Madaniyatlararo munosabatlarning tanqidiy tafakkurdagi rolini o'rganish.....	323
	Каланходжаева К.Б. Роль ведущего полушария в осуществлении психических функций и обучении студентов.....	328
	Бурунова Камола Бахтиёровна. Психология эмоциональных отношений родителей и детей в современных семьях.....	332
	Tajibayev Shohruh Maqsudovich. Maktab o'qituvchilarida psixologik stress namoyon bo'lishining obyektiv va subyektiv sabablari.....	336
	Хазиева Эльвира Диляверовна. Мобильные приложения и современная молодежь.....	340

Shodiyeva Shahlo Soliyevna
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
s.s.shodiyeva@buxdu.uz

Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo
o'g'li
Buxoro davlat universiteti II bosqich
magistranti

BUXORO AMIRLIGIDAGI SAVDO MUNOSABATLARI CHET EL SAYYOHLARI NIGOHIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligidagi savdo-sotiq munosabatlari, xizmat ko'rsatish sohalari faoliyati chet el sayyoh va elchilari kundaliklaridagi ma'lumotlar asosida izohlangan. Buxoro qadimdan buyuk sivilizatsiyalar kesishgan nuqtada, savdo-sotiq, tijorat, hamda tarixan boy bo'lgan xalqaro munosabatlar yo'nalishining chorrahasida joylashgan. Takomillashib borgan savdo-sotiq sohasida tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish tizimi faoliyati yetarlicha yo'lga qo'yilgan. O'lkaga tashrif buyurgan rus va ingliz tadqiqotchilari, sayyoh va elchilari o'z esdaliklarida amirlikning ichki va tashqi savdo munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, mahalliy bozorlar, Demezon, Florio Benevini, Buxoro yodgorliklari, esdalik, missiya, Amerika, Angliya, elchilar.

ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ТУРИСТОВ

Аннотация: В данной статье на основе информации дневников иностранных туристов и послов освещаются торговые отношения и деятельность сферы услуг в Бухарском эмирате. Бухара издавна находилась на стыке великих цивилизаций, на перекрестке торговли, коммерции и международных отношений с богатой историей. Достаточно налажена деятельность системы обслуживания посетителей в улучшенном торговом секторе. Российские и английские исследователи, туристы и послы, посетившие страну, предоставили в своих мемуарах ценные сведения о внутренних и внешних торговых связях эмирата.

Ключевые слова: внешняя торговля, местные рынки, Демезон, Флорио Беневини, памятники Бухары, сувенир, миссия, Америка, Англия, послы.

TRADE RELATIONS IN THE BUKHARA EMIRATE FROM THE POINT OF VIEW OF FOREIGN TOURISTS

Summary: This article, based on information from the diaries of foreign tourists and ambassadors, highlights trade relations and the activities of the service sector in the Bukhara Emirate. Bukhara has long been at the crossroads of great civilizations, at the crossroads of trade, commerce and international relations with a rich history. The operation of the visitor service system in the improved trade sector is quite well established. Russian and English explorers, tourists and ambassadors who visited the country provided valuable information about the emirate's internal and external trade relations in their memoirs.

Key words: foreign trade, local markets, Demaison, Florio Benevini, monuments of Bukhara, souvenir, mission, America, England, ambassadors.

Kirish. XIX asr Buxoro amirligi va shu jumladan butun Turkiston xalqlari uchun juda katta o'zgarishlar davri bo'ldi. Buni birgina o'zaro uyushmagan xonliklarning Chor Rossiyasi tomonidan egallanishi orqali ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon o'z-o'zidan sodir bo'lmagan albatta. Dastlab, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvolini, tashqi diplomatiyasi, hamda harbiy salohiyatini o'rganishga e'tibor qaratgan. Buning uchun Chor

Rossiyasi tomonidan turli ekspeditsiyalar, tadqiqotlar, elchilik aloqalari orqali zaruriy ma'lumotlar to'plana boshlangan. Bunda asosiy vazifani elchi, sayyoh, savdogar ko'rishidagi josuslar bajarishgan. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, ular bu ishni a'lo darajada uddalashgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tanlangan mavzuni yoritishda asosan birlamchi manba sifatida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan elchi va sayyohlarning kundalikleri tahlilga tortilgan. Shuningdek, keying yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidagi ma'lumotlar ham atroflicha ko'rib chiqilgan.

Mavzuni yoritishda diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. 1830-yilda Qozon universitetida sharq tilshunosligi bo'yicha nomzodlik unvoniga ega bo'lgan, Sharq tillari bilimdoni, Nepluyev harbiy maktabi o'qituvchisi, Orenburg chegara komissiyasi tarjimoni P.I.Demezov va 10-Orenburg chegara batalyoni kichik ofitseri, 1836-yildan V.A.Perovskiyning katta adyutanti I.V.Vitkevichlarning Buxoro amirligida elchi-sayyoh va maxfiy josus sifatidagi faoliyatini aytib o'tishimiz mumkin. P.I.Demezov va I.V.Vitkevich faoliyatlarining natijasi bo'lgan "Записки о Бухарском ханстве" deb nomlangan esdalikda XIX asr Buxoro amirligining tashqi siyosati va diplomatik munosabatlari; amirlikdagi ichki va tashqi savdo, iqtisodiy ahvol; shuningdek ijtimoiy, siyosiy va harbiy soha masalalariga oid juda zarur ma'lumotlar to'plangan[1.149].

Elchi, sayyoh va olim Pyotr Ivanovich Demezov (Mirzo Zafar) 4 oy davomida Buxoroda juda ko'p ishlar qilishga ulgurdi. U 1834-yil aprelda o'zining dastlabki to'plagan ma'lumotlarini Orenburgga yubordi. Buxoro shayx ul-islomi bilan yaqin aloqada bo'ldi va Perovskiyning qushbegiga yo'llagan maktubini yetkazdi. P.I.Demezov yana ikkita mukammal hisobnoma tayyorladi, hamda ularni o'zi bilan birga Orenburgga olib bordi va 1834-yil 2-iyunda topshirdi. Shuningdek u, Buxorodagi savdo-sotiq, pul munosabatlari, inglizlar va Buxoroning harbiy sohasiga oid 25 ta punktdan iborat hisobot to'plamini yig'di. Ma'lumotlar ochiq bo'lib, Buxoro amirligining harbiy jihatdan zaif nuqtalaridan xabardor etardi.

P.I. Demezov O'rta Osiyo g'arbiy mintaqasining geografiasiga va etnografiyasiga taaluqli qimmatli ma'lumotlarni ancha to'la va eng haqiqiy faktlar hamda sonlar asosida sanab o'tadi. Buxoro amirligidagi barcha bozorlar va ularning qurilish strukturasi haqida ham ma'lumot beradi. Buxorodagi safari davomida Mulla Jafar nomi bilan faoliyat yuritgan elchi, josuslik ishlaridan tashqari olim sifatida tadqiqot ishlarini ham olib borgan. Jumladan:

-Islom dinining farz va sunnatlarini bajarish orqali masjid va madrasalar haqida ma'lumotlar to'plagan;

-O'lkada rus tovar va mahsulotlari uchun yangi bozor tashkil etish sharoitlarini o'rganish barobarida, Buxoro amirligining hunarmandchilik, dehqonchilik, ipakchilik, chorvachilik, mol ayirboshlash, ichki savdo-sotiq, shuningdek, tashqi savdo va bu orqali davlatning qay darajada foyda olayotganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rgangan;

-Safari davomida har bir bozor va karvonsaroylarga tashrif buyurib, amirlikning chet el savdogarlariga berilgan imkoniyatlar, qo'yilgan ta'qiqlar (chekish va har qanday o'yin-kulgu) va ularga bo'lgan e'tibor haqida aniq faktlarni to'plagan;

-Oddiy xalq vakillari bilan uchrashib yuqori qatlam haqidagi ma'lumotlarni va aksincha, turli mansabdor shaxslar bilan yaqin aloqa o'rnatib (qushbegi, mudarris, shayx ul-islom) xalq ustidan o'rnatilgan nazorat va o'lka ijtimoiy hayotiga doir jihatlariga e'tibor qaratadi;

-Buxoro qo'shbegisining yaqin qarindoshi uyida yashab turib, amirlikning harbiy qo'shini va ularning salohiyati haqida qimmatli (Rossiya imperiyasi uchun ayni muddao bo'lgan) axborotlarni qo'lga kiritadi[1.135].

Buxoro amirligiga tashrif buyurgan yana bir elchi va sayyoh Florio Benevini 1718-yilda Neapoldan qaytib kelgach, Sharq ekspeditsiyasining kotibi etib tayinlandi. Pyotr I unga Rossiyadan qaytgan buxorolik elchi Qulibek To'pchiboshi bilan birga Buxoroga borishni buyuradi. Qulibek To'pchiboshi Shamaxa va Tehron orqali Buxoroga 1721-yilda yetib keladi. Sayohat va Buxoroda bo'lgan vaqt davomida Florio Benevini O'rta Osiyo xonliklarining ichki

ahvoli, siyosiy kurashi, xalqaro munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi „Buxorodagi sobiq elchi Flori Benevenining qisqacha jurnali“ asarini yuritadi. Rus armiyasining Forsga yurishi haqidagi taassurot, xonlarning o'zlari va ularning yaqin doiralari, saroylardagi axloqi haqida ma'lumot beradi. Buxoroliklarning o'z hududlarida qanday tovarlari bor va ularni qayerda sotadi, buni elchi ko'rib, aniqlagan. Xonlik haqidagi ayrim ma'lumotlarni, jumladan, XVIII asrda O'rta Osiyoning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalarini o'rganishda rus manbalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, savdo yo'llarini o'rganish uchun qilingan harakatlar, hamda qaysi mamlakatdan qanday mollar qancha miqdorda keltirilganligi haqidagi ma'lumotlar batafsil berilgan[4.19]. Rus manbalarida rus elchi va elchiliklarining hisobotlari, Buxoro, Xiva va Hind elchilari hamda savdogarlarining so'rov ma'lumotlari keltirilgan. Shuningdek, hukmdorlar hamda xonlarning bir-birlariga tortiqlari, sovg'alari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Ana shu ma'lumotlar orqali O'rta Osiyo xonliklarining Hindiston va Rossiya o'rtasidagi savdoda tutgan o'rnini bilib olish mumkin. Xususan A.Jenkinson Buxoro bozorlaridagi hind savdogarlarining faoliyati haqida, ... "ular Buxoroga na oltin, na kumush, na qimmatbaho toshlar, na ziravorlar keltiradi. Men, Hindistondagi bu tovarlar ishlab chiqariladigan eksport tovarlar portugallar qo'l ostida bo'lganligi uchun, bu tovarlar bilan savdo okean orqali olib borilishini aniqladim"[2.167-192], deb yozgan ma'lumotlarida elchining hind savdogarlariga o'z munosabatini bildirganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, tadqiqotchilar O'rta Osiyo bilan Moskva o'rtasidagi savdoning uch xil usuli borligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Jumladan:

1. "Povalnaya" deb ataluvchi oddiy savdo bo'lib, bu savdo erkin savdogarlar orqali amalga oshirilgan.

2. Shox va xonlarning tovarlari bilan savdo bo'lib, bu savdo shox va xonlarning elchilik bilan kelgan shaxsiy savdogarlari orqali amalga oshirilgan. Shox va xonlarning tovarlaridan soliq olinmagan.

3. "Lyubitelskiye pominki" deb atalib, ikki davlat shox va xonlari o'rtasidagi bojsiz tovar ayirboshlash hisoblanga[5.136-138].

F. Beneveni ham o'z tadqiqotlarida Buxoroning Eron bilan aloqasiga doir ma'lumotlarni berar ekan, u 1722 yil ko'p savdo karvonlari Mashhaddan Buxoroga, Hirot va Isfahonga jo'natilganligi, lekin ularning bari turkmanlar yoki afg'onlar tomonidan talanganligini, oqibatda Balx orqali bo'ladigan savdo to'xtab qolganligi, to'rtinchi yil Kobul, Laxor va Hindiston shaharlariga karvonlar qatnamay qo'rganligini yozadi. F.Beneveni o'zining xizmatkori Minerni oltin va kumush konlarining joylashgan joyini topish va aniqlash maqsadida savdogar qiyofasida Balx va Badaxshonga jo'natadi. Uning xabariga ko'ra, u yerda ko'proq buxoro tovarlari sotilib, savdogarlar bu tovarlar uchun Badaxshon aholisidan tillo va kumush quymalari ko'rinishida haq olganlar. F.Beneveni xizmatkori Minerni Balx va Badaxshon bozorlaridagi rus tovarlari hayron qoldirgan: ular nina, oyna, qaychi, munchoqlar, suvsar, qunduz, los mo'ynalari va terisi, yashil, qizil va to'q zangori movutlar edi. Uning yozishicha, Badaxshondan Balx orqali Mashhadga oltin va kumush ortilgan karvonlar bir yilda 2, 3 va hatto 4 marta brogan[9.187-190]. Xurosonda bular oltin va kumush tangalarga aylantirilib, unga O'rta Osiyo uchun Eron mollari sotib olingan.

XVIII asrning birinchi yarmida Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari kengaya boradi. Rus savdosini O'rta Osiyo xonliklari tovarlari bilan yanada ko'proq hamda keyinchalik Turkiston va Qozoq dashti ustidan nazorat o'rnatish maqsadida Orenburg shahrining qurilishi boshlab yuboriladi[3]. N.I.Neplyuyev, P.I.Richkov va K.M.Tevkelev rahbarligida Hindiston bilan savdoni yo'lga qo'yish maqsadida maxsus kompaniya tashkil qilinadi. Orenburg ekspeditsiyasi rahbari, mashhur rus geografi I.Kirilov Buxoroni Osiyoning savdo markazi sifatidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, uning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalardagi rolini ta'kidlab o'tgan edi. Mashhur rus geografi P.I.Richkov Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqasida Orenburgning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. U, butun Sharqiy Hindistonda yashayotgan xalqlar rus va boshqa g'arb tovarlarini faqat Orenburg va Buxoro orqaligina to'g'ridan-to'g'ri va arzon narxda bu qadar ko'p miqdorda va arzon narxda sotib olishi mumkin, deb ta'kidlagan edi. Rus sayyohi va

ofitseri T.S.Burnashev Rus hukumatining topshirig'iga ko'ra, 1794-yili Buxoroda bo'lgan edi. U Buxoroda bo'lgan vaqtida u yerga savdo qilish uchun Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko'rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to'g'risida yozib qoldirgan. Agarda Yefremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g'isht karvonsaroy bo'lgan bo'lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo'lgan[6.4-15]. Karvonsaroylar sonining ortib borishiga e'tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o'sib borganligi to'g'risidagi taasurotga ega bo'lamiz. Burnashevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlari esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqdorida soliq to'lagan[7.768-772]. 1903-yilda Buxoroga tashrif buyurgan amerikalik tadqiqotchi, arxeolog Roberd Bird Buxoro amirligining ijtimoiy va iqtisodiy hayoti masalalari, o'z sayohati davomida guvoh bo'lgan aholining urf-odat va an'analari, yurish turishi, dehqonchilik tartibi, hunarmandchilik va savdo sotig'i, bundan tashqari, Bird Buxoro va Samarqand shaharlari tuzilishi, ularning ijtimoiy hayoti, tarixiy obidalarini, masjid va madrasalar, turar joylar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Shu bilan birga Buxoro amirligida ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tadqiq qilgan britaniyalik diplomat, sharqshunos tadqiqotchi Richard Frensis Bertoni (1821-1890) tilga olish lozim. R.F. Berton 1860-1861-yillarda O'rta Osiyoga, Eronga, Afg'onistonga va Hindistonga tashrif buyurgan, shu bilan birga 1860-yilning yozida Samarqandda ham bo'lgan R.F. Berton Buxoro amirligining ko'p shahrlarini, tarixiy obidalarini, islom arxitekturasini, masjid va madrasalarni, xonaqoh, maqbara va hammomlarni tasvirlaydi. Ayniqsa, uning o'z "Two Thousand Miles in Persia, Turkestan, and Central Asia" (Eron, Turkiston va O'rta Osiyo bo'ylab ikki ming mil) nomli asarida keltirgan Buxoro amirligi aholisining hayoti, mashg'ulotlari, dehqonchilik va hunarmandchilik an'analari, chorvachilik, mahalliy bozor, Buxoroning Xitoy, Rossiya, Eron va Hindiston bilan tashqi savdo aloqalari haqidagi qimmatli ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega[10.287-290]. Buxoro amirligining iqtisodiy hayoti bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi muhim tarixiy ma'lumotlarni Britaniya qirolligi Geografiya jamiyati a'zosi bo'lgan, 1882-yilda Markaziy Osiyoga safar uyushtirgan va safar natijalari asosida ikki jildli asar yozgan Henri Lansdell tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Muallif asarda Turkiston, O'rta Osiyo xonliklari qatorida Buxoro amirligining ham shaharlari, shahrlarning tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi to'g'risida muhim ma'lumotlarni keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligiga tashrif buyurgan har bir elchi, sayyoh yoki harbiy ekspeditsiya vakillariga yuklatilgan asosiy vazifa bu – amirlik hayotiga tegishli bo'lgan muhim jihatlar: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy yo'nalishlarda ma'lumotlar yig'ib borish asosiy vazifa qilib yuklatilgan. O'lkaga tashrif buyuruvchi chel ellik elchi va sayyohlar doimiy ravishda kundalik yoki esdaliklar yuritgan bo'lib, unda o'zlariga yuklatilgan topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlarni yozib borganlar.

O'z navbatida ushbu kundalik va esdaliklar bugungi kunda Buxoro amirligi tarixini yoritishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.: Наука. 1983. 149-с.
2. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. / Перевод с английского Ю.В. Готье // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – Ленинград: Полиграфкнига, 1937. – С. 167-192
3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. -М.; Наука, 1975.
4. J.Y. Ergashev. Бухоро хонлиги карвон йўлларида хизмат кўрсатиш тизими (XVI-XVIII аср ўрталари): тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро: БухДУ, 2022. – Б. 19.

5. J.Y. Ergashev. Бухоро хонлиги карвон йўлларида хизмат кўрсатиш тизими (XVI-XVIII аср ўрталари): тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси – Бухоро: 2022. Б.136-138.
6. Эргашев Ж.Ю. Бухоро хонлигидаги йўлбўйи иншоотлари тарихига доир (XVI – XVIII асрлар) // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2019. № 13. – Б. 4-15.
7. Эргашев Ж.Ю. Бухоро тожир(савдогар)ларини Россияга тўлаган баъзи бож ва солиқлари ҳақида // Маҳзани илм. 2021, № 2. – Панҷакент, 2021. – С. 768-772.
8. Мубинов М.А. Из истории внешних отношений Бухарского эмирата (XVIII-XIX века).// ЗНАНИЯ И НАУКА В СУРХАНДАРЬЕ №1/2020. Стр.36-39.
9. Muhammadali Mubinov. The role of the Bukhara emirate in domestic and foreign trade routes (based on the works of Russian travelers).// CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. ISSN: 2181-2489 VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2021. P.187-190.
10. Mubinov Muhammadali. Foreign trade relations of the Bukhara emirate.// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 1 Issue 8, November 2021. –P.287-290.

Buxoro davlat pedagogika instituti muassisligidagi
“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o‘zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar chop etiladi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ
 Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
 Р/с 20208000104858465002
 Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
 ИНН 301637939 ОКНХ 87100

<p>PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA</p> <p>Xalqaro ilmiy-metodik jurnal</p> <p>2024-yil 2-son (10)</p> <p>2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>Нашр индекси: 1397</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 15.06.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 21.06.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 42,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 375. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	---